



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 1

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich

ETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH SHAKLLARINING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....5

2. Авлиякулова Матлуба Авазовна

КОРПОРАТИВ-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ.....13

3. Раҳимкулова Лола Улуғмуродовна

ИШ ТАШЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУНОСАБАТ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ. ҚОНУНЧИЛИҚДА НАЗАРДА ТУТИЛГАН КАФОЛАТЛАР.....21

4. Karimova Nigina Botirjon qizi

YO‘QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YOYVOYI FAUNA VA FLORA TURLARINI MUHOFAZA QILISHDA VASHINGTON (CITES) KONVENSIYASINING HUQUQIY ANAMIYATI.....28

5. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING PROFESSIONAL FAOLIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR.....35

6. Turayev Jo‘rabek Shonazarovich

JORIY SHAROITLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH FAOLIYATINING ILMIIY-NAZARIY TAVSIFI.....43

7. Hojiyev Nosirjon Komilovich

YO‘L HARAKATI VA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....50

8. Рузиев Маъруфжон Муртазаевич

ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИНОИЙ ЖАЗОЛАРНИНГ ЛИБЕРАЛЛАШУВИ – ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....58

9. Orakbayev Erpolat Temirbay ugli

TERGOV SUDYASI INSTITUTI: SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....65

10. Husanboev Sardor Abdugarimovich


YOSHLAR O‘RTASIDA EKSTREMISTIK TAHDIDLARNING PROFILAKTIK CHORATADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....72

11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li

KRIMINOLOGIK SIGNAL TIZIMI (REAL-TIME ALERTS): SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA JINOYAT XAVFINI OLDINDAN ANIQLASH VA PROFILAKTIKA QILISH MODELII.....82

12. Курбонов Давлат Равшанович

ШАХС ОЗОДЛИГИГА ҚАРШИ ЖИНОЯТ СОДИР ЭТГАН ШАХСНИНГ ИЖТИМОИЙ-БИОЛОГИК ТАВСИФИ.....87




12.00.07-СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

Хакбердиев Нурали Салахиддинович,
 Ichki ishlar vazirligi Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish
 boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
 E-mail: m.hakberdiev@mail.ru

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИНИНГ PROFESSIONAL FAOLIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR

For citation: Khakberdiev Nurali Salakhiddinovich. FACTORS DETERMINING THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509340>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada davlat siyosiy tizimining evolyutsion dinamikasini kadrlar siyosati bilan aloqadorligi sifat jihatidan professional kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hamda zahirasini shakllantirish dolzarbligini kasb etadi kelayotganligi tahlil qilingan. Jumladan, davlat va jamoatchilik talablariga javob beradigan fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, mustahkam xavfsizlik tizimini yaratish qobiliyatiga ega bo‘lgan ichki ishlar organlari tizimida kadrlar zahirasini shakllantirish, o‘qitish va ularni lavozimga tayinlash muhim ahamiyatga egaligiga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimida ichki ishlar organlarining barcha darajadagi xodimlari va rahbarlarining shaxsiy, ishbilarmonlik va kasbiy fazilatlariga ega kadrlar tanlanishi, ularning maqsadli joylashtirilishi hamda “xalq manfaatlariga xizmat qilish”dek o‘z xizmat burchini so‘zsiz bajarish ruhida tizimli ravishda tarbiyalash uchun shaxsiy javobgarligini oshirish dolzarb vazifa ekanligiga alohida urg‘u berilgan. Ichki ishlar organlari davlat xizmatini kadrlar bilan ta‘minlashda bir qator muammolar saqlanib qolmoqdaligi qayd etilib, kadrlarni maqsadli ravishda ishga qabul qilish tizimining to‘la shakllanmagani; kadrlar bilan bog‘liq ehtiyojlar va talabning to‘la pragnozi hamon to‘la shakllantirilmagani; kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning maqsadli tizimini pastligi, bu esa, xodimni kasbiy rag‘batlantirilmaganligi bilan bog‘liqligi o‘rganilgan. Bu boradagi muammolarni hal qilishda ichki ishlar organlari kadrlar siyosatining asosiy vazifalari to‘la amalga oshirilishi lozimligi yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kadrlar siyosati, ichki ishlar organlari, fuqarolik jamiyati, demokratiya, siyosiy madaniyat, jamoat xavfsizligi, davlat xizmati, huquqni muhofaza qiluvchi organ.

Хакбердиев Нурали Салахиддинович,
 Заместитель начальника Управления координации
 специальных операций Министерство внутренних дел
 E-mail: m.hakberdiev@mail.ru

ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализирована актуальность формирования потребности и резерва профессиональных кадров во взаимосвязи с эволюционной динамикой государственной политической системы и кадровой политикой. В частности, особое внимание уделено важности формирования кадрового резерва, их обучения и назначения на должности в системе органов внутренних дел, способной обеспечивать защиту прав и свобод граждан, отвечающую требованиям государства и общества, а также создавать устойчивую систему безопасности. Кроме того, в системе государственного управления подчеркнута актуальность отбора кадров для органов внутренних дел на всех уровнях — сотрудников и руководителей, обладающих высокими личными, деловыми и профессиональными качествами, их целевого размещения, а также системного воспитания в духе безусловного исполнения служебного долга — «служения интересам народа», и повышения личной ответственности за это. Отмечается, что в кадровом обеспечении государственной службы органов внутренних дел сохраняется ряд проблем, в том числе: неполная сформированность системы целевого приема кадров на службу; отсутствие полноценного прогнозирования потребностей и спроса на кадры; низкий уровень целенаправленной системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации кадров, что, в свою очередь, связано с недостаточной профессиональной мотивацией сотрудников. По результатам исследования разработаны предложения, направленные на полную реализацию основных задач кадровой политики органов внутренних дел с целью решения обозначенных проблем.

Ключевые слова: кадровая политика, органы внутренних дел, гражданское общество, демократия, политическая культура, общественная безопасность, государственная служба, правоохранительные органы.

Khakberdiev Nurali Salakhiddinovich,
Deputy Head of the Department for Coordination
of Special Operations of the Ministry of Internal Affairs
E-mail: m.hakberdiev@mail.ru

FACTORS DETERMINING THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

ANNOTATION

This article analyzes the relevance of the evolutionary dynamics of the state political system in relation to personnel policy, which makes the need for and the formation of a reserve of professional personnel of high quality relevant. In particular, special attention is paid to the importance of forming a reserve of personnel in the system of internal affairs bodies capable of protecting the rights and freedoms of citizens and creating a strong security system that meets the requirements of the state and society, training them and appointing them to positions. It is also emphasized that in the system of state administration, it is an urgent task to select personnel with personal, business and professional qualities of employees and leaders of internal affairs bodies at all levels, to place them in a targeted manner and to systematically educate them in the spirit of unconditional fulfillment of their duty as "serving the interests of the people". It is noted that a number of problems remain in providing the civil service of internal affairs bodies with personnel, and the system of targeted recruitment of personnel has not been fully formed; a complete forecast of personnel needs and demand has not yet been fully formed; The low level of targeted training, retraining and advanced training of personnel, which is associated with a lack of professional motivation of employees, was studied. In order to solve these problems, proposals were developed on the need to fully implement the main tasks of the personnel policy of the internal affairs bodies.

Keywords: personnel policy, internal affairs bodies, civil society, democracy, political culture, public safety, civil service, law enforcement agency.

Dunyo mamlakatlarida milliy va xalqaro huquq normalari asosida kadrlar bilan ishlash tizimini tubdan rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi va istiqbolli yoʻnalishlarini belgilash, davlat boshqaruvining maʼmuriy asoslarini takomillashtirish bilan bogʻliq faoliyat siyosiy modernizatsiya jarayonlarining muhim qismiga aylanmoqda. Xususan, ichki ishlar organlari uchun intellektual va professional bilim darajasi, maʼnaviy-axloqiy saviyasi yuqori boʻlgan kadrlar tayyorlash boʻyicha sifat jihatidan yangi tizimni yaratish, profilaktika, jinoyat qidiruv, tergov, yoʻl-patrul va patrul-post xizmati, ekspert-kriminalistika sohasi hamda maxsus yoʻnalishlar kadrlarining kasbiy bilimlari va koʻnikmalarini muntazam takomillashtirib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kadrlar siyosati - kadrlar bilan ishlash yoʻnalishi va mazmunini belgilovchi maqsad va tamoyillar bugungi kunda jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan alohida tizim sifatida tatbiq etilib, unda rahbar xodimlarni shakllantirish, xodimlarni boshqarish, faoliyatni tartibga soluvchi prinsiplar, normalar, vositalar va usullar majmuini ishlab chiqish tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Bunda har bir davlat siyosiy tizimining transformatsiyalashuvi jarayonida kadrlarning kasbiy va shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy tayyorgarligi, maʼnaviy-psixologik holati va xizmat (ish) tajribasining birlashmasi orqali kadrlar salohiyatini uzluksiz baholab borish, faoliyatini nazorat qilish zaruriyati dolzarblashmoqda.

Oʻzbekistonda ichki ishlar organlarida zamonaviy kadrlar siyosati borasidagi islohotlarning ustuvor yoʻnalishlari sifatida: professional kadrlar tarkibini shakllantirish, kadrlar qoʻnimsizligini pasaytirish, xodimlarning uzoq muddatli xizmatini ragʻbatlantirish, shuningdek, kadrlarning kasbiy malakasi va qobiliyatlarini inobatga olgan holda lavozimlarga optimal taqsimlash strategik vazifalar etib belgilanmoqda. "...davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish zarur"[1]. Jumladan, davlat boshqaruvi tizimida ichki ishlar organlarining barcha darajadagi xodimlari va rahbarlarining shaxsiy, ishbilarmonlik va kasbiy fazilatlariga ega kadrlar tanlanishi, ularning maqsadli joylashtirilishi hamda "xalq manfaatlariga xizmat qilish"dek oʻz xizmat burchini soʻzsiz bajarish ruhida tizimli ravishda tarbiyalash uchun shaxsiy javobgarligini oshirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Davlat siyosiy tizimining evolyutsion dinamikasini kadrlar siyosati bilan aloqadorligi sifat jihatidan professional kadrlarga boʻlgan ehtiyojni hamda zahirasini shakllantirish dolzarbligini kasb etadi. Jumladan, davlat va jamoatchilik talablariga javob beradigan fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, mustahkam xavfsizlik tizimini yaratish qobiliyatiga ega boʻlgan ichki ishlar organlari tizimida kadrlar zahirasini shakllantirish, oʻqitish va ularni lavozimga tayinlash muhim ahamiyatga egadir.

Har bir jamiyatda siyosiy tizimning amal qilishi orqali ijtimoiy manfaatlar jamlanadi hamda mavjud siyosiy institutlar faoliyatiga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Hozirgi sharoitda jamiyatimizda siyosiy tizimning muhim vazifalardan biri – bozor munosabatlariga oʻtish sharoitida turli ijtimoiy manfaatlar muvozanatini topishdan iboratdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-3413-son qarori talablari asosida kadrlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi joriy etilib, ichki ishlar organlarining "Intizom ustavi" va "Ichki xizmat nizomi" amaliyotga toʻliq kiritildi, xodimlarni ijtimoiy, maʼnaviy va ruhiy taʼminlash ishlari tizimlashtirildi.

Ichki ishlar organlari tizimi sohaviy xizmatlari va hududiy boʻlinmalarining vazifa va funksiyalarini maqbullashtirish boʻyicha institutsional yondashuv, shuningdek, tizimga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, xodimlarning ijtimoiy himoyasi va maishiy sharoitlarini yaxshilash kabi amaliy ishlar ularning oʻz xizmat vazifalarini mukammal bajarishlari uchun munosib shart-sharoit yaratish imkonini beruvchi istiqboldagi amaliy mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan masalalar bugungi kun dar talabidir.

Davlat kadrlar siyosatini isloh qilish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, davlat xizmati, uning ayrim turlari tizimini shakllantirish va rivojlantirish, davlat organlarida kadrlar tarkibini sifatli shakllantirish hamda ulardan oqilona foydalanishga qaratiladi. Oʻz navbatida, tizimni modernizatsiyalash vazifalarini hal qilish bilimlar va kasbiy tayyorgarlikning yuksak darajasiga ega

bo‘lgan malakali kadrlar mavjudligini taqozo etadi. “Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq”[2, 22-b]. Shu bois, har bir sohada davlat kadrlar siyosatini takomillashtirish, unga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish sharoitida davlat xizmatchilarining, boshqaruv kadrlari zaxirasining mahorati va kompetentligi muammosi kun tartibiga qo‘yilmoqda.

“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”[3], “2022–2026-yillarda 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi”[4] va O‘zbekiston Respublikasining Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan vazifalar siyosiy tizimni yanada demokratlashtirish, bunda kadrlar siyosatini oqilona tashkil qilish masalasini dolzarblashtiradi. Zero, demokratik tipdagi siyosiy tizim sharoitidagina tub ijtimoiy o‘zgarishlarni, islohotlarni chuqurlashtirish mumkin bo‘ladi.

Aynan ichki ishlar organlari tizimida kadrlar siyosati funksiyasi va strukturasi optimallashtirish uning amal qilishi va rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Sohani optimallashtirish yo‘nalishlari qatorida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: sohada davlat xizmatining istiqbolli modellarini tanlash, davlat xizmatining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, bir-birini takrorlaydigan va xos bo‘lmagan funksiyalardan qutulish va boshqalar. Ichki ishlar organlari davlat kadrlar siyosati ko‘pchilik olimlar tomonidan tahlil qilinib, uning siyosiy, huquqiy, tarkibiy, tizimli va boshqa qator tahlillari amalga oshirilgan.

Shunga qaramasdan, davlat kadrlar siyosati samaradorligi va davlat xizmatchisi faoliyati samaradorligi masalalariga mazkur manbalarda, ko‘pincha, bir xil yondashiladi. Ya’ni ichki ishlar organlari davlat kadrlar siyosati samaradorligi ichki ishlar organlari xizmatchisi faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi. Bizningcha, bular bir-biridan farqlanuvchi ikki masala bo‘lib, ularga alohida kategoriyalar sifatida yondashish kerak. Shunga ko‘ra, ichki ishlar organlari kadrlar siyosati kompleks tavsiflash, asosiy tushunchalarni avvaldan tahlil etishni talab qiladi.

Ichki ishlar organlari sohasida kadrlar siyosatidagi samarali tizim va uni amalga oshirishga qaratilgan mexanizmlar muammosining ahamiyati shu vaziyat bois yanada ortadiki, biz bu sohada ham davlat xizmati tizimini isloh qilish bosqichida turibmiz, bu esa, davlat xizmati barcha taraflarining yuqori darajadagi o‘zaro hamkorligini nazarda tutadi[5, 172-b]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillardagi farmon va qarorlarida, ayniqsa, Harakatlar strategiyasida, keyinchalik Taraqqiyot strategiyasida ham davlat xizmatini, xususan ichki ishlar organlari kadrlar siyosatini boshqarishning samarali tizimini yaratish yaqin besh yillikka mo‘ljallangan asosiy strategik vazifalarimiz ro‘yxatiga kiritilganligi bejiz emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisiga yo‘llagan murojaatnomasida Ichki ishlar organlari tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar bo‘yicha qo‘yidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tdi - “Biz ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Biroq, ochiq tan olish kerak, ushbu idoralar hali xalqchil tuzilmaga, fuqarolarning chinakam himoyachisiga aylangani yo‘q. Tizimda jamoat tartibini saqlash, jinoyatlarga qarshi kurashish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish”dan iboratligi ta’kidlandi[6, 56-b].

Progressiv ijtimoiy dinamika sharoitida u ko‘plab yangi qirralar bilan namoyon bo‘ladi. Xususan, zamonaviy demokratiya g‘oyalarini amalga oshirishda ijro institutlarining o‘z faoliyatini innovatsion usullarda tashkil etish muammosi hozirgi davrda katta ahamiyatga ega. Bu, birinchi navbatda, davlat hokimiyati bilan bog‘liqligi tufayli siyosiy jarayondagi roli katta bo‘lgan jamoalarga, xususan, ichki ishlar organlari xodimlariga taalluqlidir.

Demokratik o‘zgarishlar jarayonida ichki ishlar organlari xodimlarining salmoqli salohiyati katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu ularning ijtimoiy va kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq. Ijtimoiy ziddiyatli vaziyatlarda davlat nomidan faoliyat ko‘rsatuvchi ichki ishlar organlarini yanada rivojlantirish mumkin, balki mazkur siyosiy institutning jamiyat va davlatdagi turli siyosiy, ijtimoiy nizolarni hal qilishning eng ishonchli instituti sifatida e’tirof etish zarur. Bu ishonchli vazifa ichki ishlar organlari xodimlarining siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va siyosiy mas’uliyatini aniq mexanizmlar asosida rivojlantirishni taqozo etadi.

Masalaning siyosiy ahamiyati shundaki, zamonaviy kriminogen vaziyat bir qator siyosiy jihatlariga ega. Bunday sharoitda jamoat xavfsizligini ta'minlash ichki ishlar organlari xodimlaridan yetarlicha siyosiy bilim va malaka talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, siyosiy madaniyat va jamoat xavfsizligi chambarchas bog'liq tushunchalardir. Siyosiy madaniyat jamoat xavfsizligini ta'minlash va mustahkamlash omili hisoblanadi, chunki yuqori siyosiy madaniyatga ega bo'lgan jamiyat ijtimoiy muhitdagi inqirozli hodisalarga, masalan, iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy islohotlar va boshqalarga kamroq moyil bo'ladi. Shuningdek, bir xil siyosiy madaniyat sharoitida ijtimoiy muhitdagi nizolar kamroq yuzaga keladi.

Bundan tashqari, Yangi O'zbekiston sharoitida ichki ishlar organlari xodimlarining siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va siyosiy mas'uliyati muammosini ilmiy jihatdan yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan belgilanadi. Bizningcha, ichki ishlar organlari xodimlari o'z kasbiy faoliyatida qonun ustuvorligi, mamlakatning yaxlitligi, ichki davlat siyosati va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining birligi tamoyillari asosida faoliyatini amalga oshirishga majburdirlar.

Ijtimoiy-professional jamoa sifatida ichki ishlar organlari xodimlarining siyosiy ongi bir qator muhim omillar bilan belgilanadi:

a) o'z faoliyatida maqsadli, fundamental (strategik) va (taktik) vazifalarni qo'yish bilan hal etish;

b) maqsadga erishishning vositalari va usullarini aniqlash;

v) dolzarb muammolarni hal qilishda tashkiliy - siyosiy jihatdan ta'min etishning yo'nalishlari va yo'llarini aniqlash;

g) siyosiy qarorlar va maqsadli dasturlarning bajarilishi ustidan qat'iy nazorat qilish[7, 24-b].

Shu bilan birga siyosiy ongni shakllantirishning o'ziga xosligini belgilaydigan muhim sharti - bu O'zbekistonda ichki ishlar organlari xodimlarining ishiga doimo berilgan bahodir. Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan ichki siyosiy yo'nalishning barqarorlashuvi sharoitida ichki ishlar organlarining siyosiy mavqeini yanada oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu shundan iboratki, ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim vazifani bajaradi va jamoat xavfsizligi toifasi hozirgi vaqtda siyosiy ustuvorliklar tizimida asosiy o'rinni egallaydi.

S.S.Smoleva fikricha, "ichki ishlar organlari xodimlarining siyosiy madaniyatini shakllantirishning asosi siyosiy betaraflik tamoyili bo'lib, u xodimlarning siyosiy huquq va erkinliklarini cheklashda (siyosiy partiyalarga, ijtimoiy harakatlarga a'zo bo'lishni taqiqlash) namoyon bo'ladi. Biroq ichki ishlar organlari xodimlarining siyosiy-huquqiy erkinliklarini cheklashni ta'minlovchi huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ularning amaliy faoliyatida huquqiy normaning aniq ko'rsatmalarga ega emasligi muammosi mavjud"[8, 160-b].

Ichki ishlar organlari xodimlarining siyosiy ongini rivojlantirish istiqbollari baholash shuni ko'rsatdiki, u fuqarolik deontologik tayyorgarligi yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilishi kerak, bu nafaqat xizmat munosabatlarining insonparvarlik xarakterini, balki xizmat ko'rsatish sohasidagi munosabatlarni amalga oshirishni ham ta'minlaydi. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati g'oyalari doimo ustuvor bo'lishi lozim. Hozirgi vaqtda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning istiqbolli konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida o'z sa'y-harakatlarini boshqa har qanday vazifalardan ko'ra ko'proq fuqarolarga o'z huquqlarini amalga oshirishga yordam berishga qaratishlari kerak.

Bizningcha bugungi kunda ichki ishlar organlari tizimida kadrlar siyosati quyidagi asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

-bilimni oshirish, ko'nikma hosil qilish va malakalarni shakllantirish asosida tezkor xizmat faoliyatini amalga oshirishda xodimlarning yuqori darajadagi kasbiy mahoratga erishishini ta'minlovchi kasbiy tayyorlash;

-xodimlarning yuqori siyosiy-huquqiy axborotlardan xabardorligini oshirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishning ishonchli tizimini shakllantirish.

Bu borada tizim tarkibini zamonaviy kadrlar bilan ta'minlash muammosi ham mamlakatning modernizatsiyalashuvida asosiy hal qiluvchi omillardan biridir. Ushbu masalaning nechog'lik dolzarb

muammolardan ekanligini bugun O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan keng islohotlar olib borilmoqda.

Bu esa, mamlakatimizda davlat boshqaruvining barcha bo‘g‘inlarida (jumladan, ichki ishlar organlarida ham) amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar o‘z natijasi va samarasini bermoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar yangicha fikrlash, yangicha tafakkur va yangicha dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etadi. Shu jumladan, davlat boshqaruvida ham institutsional islohotlarni amalga oshirish, boshqaruv samaradorligini ta‘minlashda innovatsion menejment instrumentlaridan foydalanish talab etadi[9, 9-b].

Darhaqiqat, jamoat tartibi saqlash va xavfsizligini ta‘minlashning samaradorligi bu yo‘nalishda xizmat olib boruvchi kadrlarning yuqori kasb mahoratiga hal qiluvchi darajada bog‘liqdir. Bevosita tizimni kadrlar bilan ta‘minlashning mohiyati xususida so‘z borganda, uni keng ma‘noda, maqsadlarga erishish uchun vakolatli shaxslarni jalb qilish, tanlash va saqlab qolish jarayoni sifatida tavsiflash mumkin. Bu borada Z.S.Fedorovichning fikriga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, davlatning huquqni muhofaza qilish bo‘yicha funksiyasi ta‘minlanishidagi eng muhim yo‘nalish – kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalashdir[10, 6-b]. Inson faoliyatining har qanday turi resurs va birinchi navbatda kadrlar ta‘minotiga muhtoj bo‘lib, ichki ishlar organlari boshqaruvida bunday ta‘minot, odatda, kadrlar bilan ishlash deb ataladi[11, 3-b].

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ta‘minlash – respublikada amalga oshirilayotgan kadrlar siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z ichiga soha xususiyatlaridan kelib chiqqan holda lavozimga tanlanadigan xodimlar uchun alohida talablarni belgilash, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlarning qonuniylik va xizmat intizomi talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish jarayonini qamrab oladi.

Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, o‘ziga xos tarixiy shakllanish davrini bosib o‘tdi deb, aytish mumkin. Zero, ichki ishlar organlarida olib borilayotgan kadrlar siyosati mamlakatda bir yoki bir nechta tarixiy bosqichda shakllangan ijtimoiy-siyosiy vaziyatning ko‘rinishi hisoblanadi. Jumladan, politsiya sohasining kadrlar ta‘minoti bilan bog‘liq omillarini o‘rgangan amerikalik olimlar Jeyms Makkabe va Pol Okonnel ta‘kidlaganlaridek, “jinoyatchilikning yoki ma‘lum bir jinoyat turining oshishi sayin ichki ishlar organlarining kadrlar ta‘minoti bo‘yicha omillar doimiy o‘zgarib turadi[12, 2-b].

Keyingi yillarda davlat siyosiy tashkilotlari, jumladan ichki ishlar organlarida ham bir qator kamchiliklar yoki muammolar ko‘zga tashlanmoqda.

Jumladan:

-davlat xizmati to‘g‘risidagi qonunchilik me‘yorlarini qo‘llashning ilmiy asoslangan va sinovdan o‘tgan uslubining mavjud emasligi;

-lavozim reglamentlarini ishlab chiqishning qonuniy asoslari to‘liq ishlab chiqilmaganligi;

-bo‘sh lavozimlarni egallashga tanlovlarning soxtaligi, malaka imtihonlari hamda faoliyatni baholash texnologiyalarini puxta ishlanmaganligi;

-qog‘ozbozlik va poraxo‘rlikka imkon yaratuvchi davlat xizmatining yetarli darajada oshkora emasligi kabilarni kiritish mumkin.

Zamonaviy kadrlar siyosati bugungi kunda barcha siyosiy hokimiyat institutlarida innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llashni taqozo qilmoqda. Bu borada O‘zbekistonda ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatini doimiy ravishda baholab borishda SMART usulini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Unga ko‘ra, maqsad aniq (specific), o‘lchovli (measurable), maqbul (accepted), haqiqiy (realistic), cheklangan vaqt oralig‘ida bajariladigan (time-dependent) tamoyillar ustuvor mezonlar sifatida qabul qilinadi.

Bu usul o‘z navbatida kadrlar siyosatida mehnat resurslarini, ayniqsa, ishchi kuchini rejalashtirish, mehnat resurslari uchun istiqbolli, tizimli, kamxarj mezonlarga asoslangan strategik kadrlar siyosatini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, aytish mumkinki, ichki ishlar organlari davlat xizmatini kadrlar bilan ta‘minlashda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, jumladan: kadrlarni maqsadli

ravishda ishga qabul qilish tizimining to‘la shakllanmagani; kadrlar bilan bog‘liq ehtiyojlar va talabning to‘la pragnozi hamon to‘la shakllantirilmagani; kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning maqsadli tizimini pastligi, bu esa, xodimni kasbiy rag‘batlantirilmaganligi bilan bog‘liqdir.

Bizningcha, bu boradagi muammolarni hal qilishda ichki ishlar organlari kadrlar siyosatining quyidagi asosiy vazifalari to‘la amalga oshirilishi lozim:

1. Vazirlik va uning mahalliy boshqaralarining kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha faoliyatning qonuniyligini ta‘minlash uchun yetarli bo‘lgan huquqiy makonni yaratish.

2. Viloyat, shahar, tuman darajasidagi ichki ishlar organlarining barcha darajalarida kadrlar rivojlanishini ta‘minlash uchun infratuzilmani yaratish.

3. Ichki ishlari organlarida kadrlar, tajribali va malakali mutaxassislar bilan ishlaydigan qo‘shimcha tashkiliy tuzilmalarni yollash.

Bizningcha, ichki ishlar organlari tizimida kadrlar siyosatini amalga oshirishda markaziy va mahalliy tarmoqlarida umumiy mezon va tamoyillar bilan birga, har bir mintaqaning xususiyatlarini inobatga olingan holda o‘zgartirishlar kiritishni nazarda tutilishi lozim.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.//Xalq so‘zi. 2018-yil 29-dekabr, № 271. (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. T.//Xalq so‘zi. December 29, 2018, No. 271).

2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. –T.: O‘zbekiston, 2018. –B.22. (Mirziyoyev Sh.M. The Constitution is a solid foundation for our free and prosperous life, the further development of our country. –T.: Uzbekistan, 2018. –P.22).

3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent. 2010. (Karimov I.A. Concept of further deepening democratic reforms and developing civil society in our country. – Tashkent. 2010).

4. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 9-sentyabr. № 180 (6874). (“Xalq So'zi" newspaper, September 9, 2017. No. 180 (6874)).

5. Xojiyev E. T. Davlat xizmati : o‘quv qo‘llanma / E. T. Xojiyev, G. S. Ismailova, M. A. Raximova. – Toshkent: Baktria press, 2015. – 172 b. (Khojiyev E. T. Civil service: a textbook / E. T. Khojiyev, G. S. Ismailova, M. A. Rakhimova. – Tashkent: Baktria Press, 2015. – 172 p.).

6. Mualliflar jamoasi. Tergov bo‘linmalari xodimlari uchun qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridani tergov departamenti. – Toshkent, 2020. – B.56. (Authors' team. Manual for employees of investigative units. Investigation Department under the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent, 2020. –56 p).

7. Папура Т. Формирование политического сознания сотрудников органов внутренних дел как фактор становления правового государства в России: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. – Ставрополь, 2006. – 24 с. (Papura T. Formation of political consciousness of employees of internal affairs agencies as a factor in the development of the rule of law in Russia: Abstract of a dissertation for the degree of candidate of political sciences. – Stavropol, 2006. – 24 p.)

8. Погорелов А.А. Политическая культура сотрудников органов внутренних дел в процессе обеспечения общественной безопасности в России: диссертация ...кандидата политических наук. – Пятигорск, 2009. – С.160. (Pogorelov, A.A. Political Culture of Internal Affairs Officers in the Process of Ensuring Public Safety in Russia: Dissertation by a Candidate of Political Sciences. – Pyatigorsk, 2009. – P.160).

9. Xolov A. “Aqli” boshqaruv prinsiplariga bosqichma-bosqich o‘tish masalalari. // Jamiyat va boshqaruv. –2019. –№2 (84). –B.72. (Kholov A. Issues of a gradual transition to the principles of "smart" management. // Society and Management. –2019. –№2 (84). –B.72).

- 10.** Федорович З.С. Кадровое обеспечение деятельности органов внутренних дел: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – С, 1997. – С.6. (Fedorovich Z.S. Personnel support for the activities of internal affairs agencies: Abstract of a Doctor of Law dissertation. – С, 1997. – P.6).
- 11.** Притула В.И. Кадровое обеспечение подразделений предварительного следствия в органах внутренних дел Российской Федерации: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М, 2009.– С 3. (Pritula V.I. Personnel support of preliminary investigation units in the internal affairs bodies of the Russian Federation: Abstract of Cand. Sci. (Law) Dissertation. – М, 2009. – P. 3.).
- 12.** James E. McCabe and Paul E. O’Connell Factors Related to Police Staffing // International Journal of Humanities and Social Science Review. Vol. 3 No. 6; November 2017. – P.2.// <https://pdfs.semanticscholar.org/8d05/c>.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF LAW RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000